

ZAMON O‘ZGARSA, SO‘Z HAM O‘ZGARAR: SLENGLAR HAQIDA MUSHOHADA

Musharrafxon Imomaliyeva Ilhomjon qizi,
Qo‘qon universiteti, Filologiya kafedrası dotsenti v.b
E-mail:imomaliyevamusharrafxon@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18082357>

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek tilida sleng birliklarining shakllanishi, ularning ijtimoiy-lingvistik mohiyati hamda nutq jarayonidagi funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda slenglarning paydo bo‘lish omillari, xususan, globallashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va yoshlar nutqining ta‘sir yoritiladi. Shuningdek, sleng birliklarining adabiy til me‘yorlari bilan munosabati, ularning ijobiy va salbiy jihatlari muhokama qilinadi. Maqolada slenglar til taraqqiyotining tabiiy mahsuli ekanligi asoslanib, ularni inkor etishdan ko‘ra ilmiy jihatdan o‘rganish va uslubiy jihatdan to‘g‘ri qo‘llash muhimligi ta‘kidlanadi. Tadqiqot natijalari til madaniyati, sotsiolingvistik va zamonaviy nutq jarayonlarini o‘rganishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: sleng, zamonaviy o‘zbek tili, til taraqqiyoti, nutq madaniyati, sotsiolingvistik, yoshlar nutqi.

Abstract: This article analyzes the formation of slang units in modern Uzbek, their sociolinguistic nature, and functional characteristics in speech communication. The study examines the factors influencing the emergence of slang, particularly globalization, information and communication technologies, and youth speech. It also discusses the relationship between slang expressions and literary language norms, highlighting both their positive and negative aspects. The article argues that slang is a natural outcome of language development and emphasizes the importance of studying it scientifically and using it appropriately rather than rejecting it. The research findings are significant for sociolinguistics, language culture, and contemporary discourse studies.

Key words: slang, modern Uzbek language, language development, speech culture, sociolinguistics.

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности формирования сленговых единиц в современном узбекском языке, их социолингвистическая сущность и функциональные характеристики в речевом общении. В исследовании анализируются факторы возникновения сленга, в частности влияние глобализации, информационно-коммуникационных технологий и молодежной речи. Также обсуждается соотношение сленговых единиц с нормами литературного языка, выявляются их положительные и отрицательные стороны. Обосновывается положение о том, что сленг является естественным продуктом языкового развития, а его научное изучение и уместное употребление имеют важное значение.

Ключевые слова: сленг, современный узбекский язык, развитие языка, культура речи, социолингвистика.

Kirish. Hozirgi zamon ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning nutq ma‘daniyatini shakllantirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida sleng, jargon va adabiy me‘yorlarga zid bo‘lgan birliklarning ko‘payishi kuzatilmoqda. Nutqdagi bunday holatlar bolaning savodxonlik darajasi, muloqot ma‘daniyati, tafakkur rivojiga ta‘sir ko‘rsatadi. Slengning faol qo‘llanilishi o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi shakllanishida to‘siq bo‘lib, adabiy til me‘yorlarini ongli ravishda o‘zlashtirishini sekinlashtiradi. Sleng so‘zlar

tilshunoslikning “Sotsiolingvistika” bo‘limida o‘rganiladi. O‘zbekiston Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bugungi kunda biz yangi O‘zbekistonni, yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda hech shubhasiz”. Istiqloq yillarida o‘zbek tilining qo‘llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy ommabop kitoblar, o‘quv qo‘llanmalari, yangi-yangi lug‘atlar ko‘plab chop etilayotgan jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Bugungi kunda dunyoda mavjud bo‘lgan tillarning barchasida sotsiollashuv jarayoni izchil amalga oshmoqda va sotsiolingvistika nomli maxsus tilshunoslik yo‘nalishi aynan tilning mana shu jihati bilan shug‘ullanadi. “Sotsiolekt termini lingvistikada XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan. U sotsio- jamiyatga bo‘lgan munosabat va dialekt so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, rus tilidagi “социальный диалект” (ijtimoiy dialekt) birikmasining qisqargan shaklidir. Sotsiolekt– umumiy ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra birlashgan ayrim guruhlarining lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan til shakli. Standart tildan farqli o‘laroq, sotsiolektida ba’zi o‘rinlarda chetga chiqish mumkin. Til ham xuddi tashqi ko‘rinish singari sinflar haqida guvohlik beradi”. Sotsiolektlar turli ijtimoiy guruhlar tomonidan faol qo‘llaniladigan, jonlilik, ichki yashirin munosabatni ifodalay olish kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan so‘zlardir. Sotsiolektlarga argo, jargo, sleng kabi so‘zlar mansubdir. Slenglar til iste’molchilari tomonidan qo‘llanilib, jonli so‘zlashuv nutqi bilan bog‘liq bo‘lgan, yozma nutqda esa umuman foydalanilmaydigan, biroz hazil, kinoya, ironiya ma’no attenkasini o‘zida qamrab olgan, ma’lum ijtimoiy guruh (asosan yoshlar) nuqtida faol qo‘llaniladigan so‘zlardir. Ayrim manbalarda slenglar yoshlar nutqida faol qo‘llaniluvchi so‘zlar deb ta’riflanib, zamonaviylik uning asosiy belgisidir deyiladi. Tilda qo‘llanilayotgan ayrim so‘zlar vaqtlar o‘tishi, avlodlar almashinuvi bilan ularning tildan foydalanishga bo‘lgan ehtiyojini to‘la qondira olmaydi va yangi avlod (yoshlar) ma’lum ma’noda o‘zlarining “Til muhiti” ni shakllantirib oladi [1,3].

Sotsiolingvistika shug‘ullanadigan obyektlarning ko‘lamiga ko‘ra, makro va mikro sotsiolingvistikaga bo‘linadi. Makro sotsiologiya butun bir jamiyatning rivojlanishi va faoliyat ko‘rsatishi bilan bog‘liq global jarayonlar bilan shug‘ullansa, mikro sotsiologiyani insonning u yoki bu ijtimoiy guruhning a’zosi ekanligi qiziqtiradi. Ba’zi mualliflar til hodisalarini makro va mikro yo‘nalishda emas, balki sotsiolingvistik tahlil qatlamlari sifatida farqlaydilar Makro sotsiolingvistika tilning u yoki bu darajada ijtimoiy omillar bilan shartlangan yirik ko‘lamdagi jarayonlarini o‘rganadi. Bu jarayon va munosabatlar jamiyatga to‘liqligicha yoki uning katta majmuasiga: ijtimoiy qatlam, etnos, etnik guruh kabilarga xos bo‘ladi. Masalan, tilning ijtimoiy differentsiatsiyasini o‘rganish makro qatlamni: mazkur milliy til va uning kichik tizimlarini o‘z ichiga oladi. Makro yondashuv ikki tillilikka bag‘ishlangan ko‘plab ishlarda keng kuzatiladi; tilni me’yorlashtirish va kodifikatsiyalash muammolari, shuningdek, til siyosati va lisoniy

rejalashtirish masalalari ham eng avvalo, makro sotsiolingvistik yondashuv doirasida o'rganiladi. Chunki bu masalalar mazkur til (yoki tillar)dan foydalanuvchi butun aholining yoki uning katta qismiga tegishli manfaatlarga taalluqli bo'ladi. Masalan, bir davlatda yashovchi kichik elatlar tiliga xos siyosiy masalalarda tadqiqotchi shu etnos tilining alohida vakillari misolida emas, balki bu tilning u yoki bu darajada saqlanib qolganini butun etnos misolida o'rganib chiqadi. Ikki tillilik muammosi ham makro sotsiolingvistikada o'rganiladi. Tilning sayqallanishi va uni kodlashtirish; til siyosati va tilni prognozlashtirish muammolari makro sotsiolingvistikaning obyekti hisoblanadi. Lisoniy vaziyatlarning tahliliga bog'liq muammolar ham makro sotsiolingvistika doirasida o'rganiladi. Biror bir ijtimoiy kommunikativ tizimning muloqot sohalariga bo'linishi, kommunikativlik darajasini aniqlash kabilar shular jumlasidandir. Mikro sotsiolingvistika tilning kichik jamoalar (oilalar, ishlab chiqarishdagi guruhlar, bog'cha, maktabdagi sinflar va h.k.)da ishlatilishi bilan shug'ullanadi. Katta va kichik ijtimoiy jamoalar nafaqat miqdor, balki sifat nuqtayi nazaridan ham farqlanadi: kichik ijtimoiy jamoada (masalan, oilada, turli o'yinlar va ishlab chiqarish guruhlarida) qo'llanuvchi til qonuniyatlari ko'pincha kattalar jamoasida "ishlamaydi" yoki u darajada ta'sir qilmaydi va aksincha [2,18-19].

Adabiyotlar tahlili. Bugungi globallashtirish davrida til doimiy o'zgarish va yangilanish jarayonida. Ayniqsa, yoshlar nutqi bu jarayonning eng faol qatlamini tashkil etadi. Yoshlar o'zaro muloqotda tezkor, hissiy va erkin ifoda shakllarini tanlaydilar. Shu bois so'nggi yillarda ularning nutqida **sleng** deb ataluvchi norasmiy so'z va iboralar keng tarqaldi. Sleng - bu so'zlar, iboralar va tildan foydalanish noformal reyestrtdagi so'z buzish qoidasi, bu so'zlar og'zaki suhbatlarda keng tarqalgan, ammo rasmiy yozilishda chetda qoldirilgan. Shuningdek, chet elliklarni yoki ikkala guruhni ham istisno qilish uchun alohida guruh a'zolariga umuman tegishli bo'lmagan tilni anglatadi. Bu so'z o'zining 18-asrda paydo bo'lganligi va uning yaratilishidan beri ko'p jihatdan aniqlangan. "Sleng" so'zini ilk bor ishlatishda (1756)da "oqibatsiz" yoki "buzuq" odamlarning so'z birikmasi nazarda tutilgan. XIX asrning boshlarida u endi, faqat kamyob odamlar bilan bog'liq emas edi, balki standart o'qigan nutq darajasiga past bo'lgan foydalanishlarga qo'llanilib bordi. Shots dialektida bu "chat, suhbat, mish-mish" degan ma'noni anglatadi, 1832-yilda Aberdeen shoiri Uilyam Skot tomonidan ishlatilganidek: "Sleng ularning urush g'amxo'rliqi haqida gapirishar edi". Shimoliy ingliz dialektida "qarshilik, haqoratli til" degan ma'noni anglatadi "Sleng" so'zining kelib chiqishi noma'lum. Bu birinchi marta 1800-yillarda Londondagi noma'lum va jinoyatchi sinflarning tilini bildirish uchun bosma nashrda ishlatilgan, garchi uning qo'llanilishi ehtimoldan yanada uzoqroqdir. Skandinaviyaning kelib chiqishi taklif etilgan (masalan, norvegiya slengenavn, ya'ni "qoravnomasi"), ammo "sanasi va erta uyushmalarga" asoslanib, Oksfordning inglizcha lug'atida redakatsiya qilingan. Jonathon Green, ammo, Skandinaviyaning kelib chiqishi ehtimolliigi bilan rozi bo'lib, u "tuproq" degan ma'noni

anglatadi va sleng tuproq tili ekanligini ta'kidlanib, o'z fikringizni bildirishingizning tez va halol usulidir [3,1].

Sleng so'zlarning bolalar nutqida keng qo'llanishi quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi:

adabiy til me'yorlarining buzilishi;

o'quvchi lug'at boyligining qisqarishi;

fikrni aniq va to'liq ifodalay olmaslik;

mantiqiy nutqning shakllanmasligi; yozma nutqda grammatik xatolarning ko'payishi; rasmiy va norasmiy nutq turlarini ajratishda qiyinchiliklar. Slengning asosiy manbalari - internet, ijtimoiy tarmoqlar, tengdoshlar muhitidagi norasmiy muloqot va ommaviy madaniyat mahsulotlari hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim - bu o'quvchida to'g'ri, adabiy, mantiqli va ifodali nutqni shakllantirishning eng asosiy bosqichidir. Shuning uchun, adabiy tilga sadoqatni shakllantirish, toza va nutqiy madaniyatga mos lug'at boyligini yaratish, o'quvchi tafakkurida sof nutq andozasini mustahkamlash o'qituvchining asosiy vazifalaridan sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. *Slengni bartaraf etish metodlari.* 1. Kommunikativ yondashuv asosida ishlash Ushbu metod o'quvchilarni faol muloqotga jalb qilgan holda to'g'ri gapirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Mashg'ulotlar davomida: adabiy so'zlarni tanlash topshiriqlari, sleng so'zlarni adabiy muqobilini topish mashqlari, og'zaki dialog va rolly o'yinlar, vaziyatli muloqot mashqlari qo'llansa, o'quvchilar o'z xatolarini anglab boradi. 2. "Slengni almashtir" metodi o'quvchilarga sleng so'zlari beriladi. Ular esa ushbu slenglarni adabiy muqobilini topishlari kerak bo'ladi.

Sleng so'zlar	Adabiy so'zlar
Kruto	juda zo'r
Zavtra	ertaga
Klassno	yaxshi, zo'r
Normalno	qoniqarli
Karoche	qisqasi, hullas
Slishkom	juda, haddan tashqari
Daxoya	Ko'p
Ujes	Qo'rqinchli
Bardak	betartib
Dalshi	davom etmoq
Trend	ommaviy
Ok	Hop, tasdiq ma'nosida
Daje	hattoki
Uje	allagachon
Prosta	oddiy
Vechna	doim
Pochti	deyarli
Urod	xunik
Tolka	faqat

Primerna	taxminan
----------	----------

- Ushbu metod o'quvchilarning lingvistik tafakkurini rivojlantiradi.
3. Raqamli texnologiyalar: to'g'ri talaffuz roliklari, lug'at boyligini oshiruvchi o'yinlar, dialog-simulyatorlar, interfaol kartochkalar slengdan adabiy nutqqa o'tishni osonlashtiradi.
4. Ijodiy topshiriqlar



Slengning asosiy qismi uyda muloqot jarayonida mustahkamlanadi. Shuning uchun: ota-onalarga metodik tavsiyalar berish, farzand nutqini nazorat qilish yo'llarini o'rgatish, uy sharoitida til madaniyati muhiti yaratish slengni kamaytirishda muhim o'rin tutadi. Slenglar yoshlarning o'zaro muloqotini erkin, samimiy va sodda qiladi. Ular orqali shaxs o'zini boshqalardan farqlaydi, muayyan guruhga mansubligini bildiradi, o'z fikrini qisqa va ta'sirli shaklda ifodalaydi. Bugungi kunda olib borilgan tilshunoslik tajribalari va kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar nutqida sleng so'zlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, xorijiy ommaviy madaniyat ta'siri natijasida yangi norasmiy so'zlar tezda kirib kelib, yoshlar orasida faol qo'llanmoqda. Shu sababli, Qo'qon universitetida tilshunos mutaxassislar tomonidan "Yoshlar slenglari lug'ati" ustida salmoqli ishlar yo'lga qo'yilgan.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot jarayonida zamonaviy o'zbek tilida sleng birliklarining shakllanishi, qo'llanish doirasi va funksional xususiyatlari tahlil qilindi. Olingan natijalar quyidagilarni ko'rsatdi:

Slenglarning paydo bo'lish manbalari tahlil shuni ko'rsatdiki, sleng birliklar asosan:

- 1) internet va ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, TikTok);
- 2) yoshlar nutqi va submadaniyatlari;
- 3) xorijiy tillar (ayniqsa ingliz va rus tillari) ta'siri orqali shakllanmoqda.

Masalan, *krinj*, *xayp*, *like bosmoq*, *skachat qilmoq* kabi birliklar kundalik muloqotda keng tarqalgan. Slenglar asosan norasmiy nutqda, yoshlar o'rtasidagi og'zaki va yozma

muloqotda faol ishlatiladi. Rasmiy uslub va ilmiy matnlarda ularning qo‘llanishi cheklangan bo‘lsa-da, badiiy va publitsistik matnlarda stilistik maqsadda uchrayotgani aniqlandi. Sleng birliklari nutqda: qisqalik va tejamkorlikni; emotsionallik va ekspressivlikni; guruhiy birdamlik va identifikatsiyani ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari slenglarning adabiy til me’yorlariga zid bo‘lgan holatlari mavjudligini ko‘rsatsa-da, ularning aksariyati vaqt o‘tishi bilan yo‘qolishi yoki me’yorlashib borishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Olingan natijalar zamonaviy til taraqqiyotida slenglar muhim ijtimoiy-lingvistik hodisa ekanini tasdiqlaydi. Tilning dinamik tizim ekanini inobatga olsak, slenglarning paydo bo‘lishi va faol ishlatilishi zamon, jamiyat va kommunikativ ehtiyojlar bilan bevosita bog‘liqdir. Birinchidan, slenglar yosh avlodning dunyoqarashi, axborot texnologiyalari bilan chambarchas aloqasi va global madaniyat ta’sirini yaqqol aks ettiradi. Bu holat tilning tashqi omillar ta’sirida doimiy ravishda yangilanib borishini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, slenglarning salbiy hodisa sifatida emas, balki tilning tabiiy rivojlanish bosqichi sifatida baholanishi muhimdir. Chunki tarixiy jarayonda ko‘plab so‘zlar dastlab sleng yoki jargon sifatida paydo bo‘lib, keyinchalik adabiy til tarkibiga singib ketgan. Shu bilan birga, tadqiqot slenglardan me’yoridan ortiq foydalanish, ayniqsa ta’lim muhitida va rasmiy muloqotda, til madaniyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ham ko‘rsatdi. Demak, slenglarni qo‘llashda uslubiy chegarani saqlash dolzarb masala bo‘lib qoladi.

Xulosa. Sleng so‘zlarning o‘quvchi nutqiga kirib kelishi zamonaviy axborot oqimi natijasi bo‘lsa-da, uni ta’lim jarayonida nazorat qilish, bartaraf etish va o‘rniga adabiy til me’yorlarini singdirish boshlang‘ich maktab o‘qituvchisining muhim vazifasidir. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida slenglarni bartaraf etish — bu faqat til madaniyatini rivojlantirish emas, balki o‘quvchilarda to‘g‘ri nutq, muloqot madaniyati va madaniy-ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishning muhim omilidir. Slenglar bolalarning so‘z boyligini chegaralaydi, adabiy til me’yorlariga zid bo‘lgan nutq shakllarini kuchaytiradi va ularning yozma hamda og‘zaki savodxonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ushbu jarayonni samarali boshqarish uchun o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona va ta’lim muassasasi o‘rtasida uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kerak bo‘ladi va bu borada o‘zinning bir nechta taklif va tavsiyalarimni bildirmoqchiman. Birinchidan, o‘qituvchilar dars jarayonida sleng–adabiy so‘zlar solishtirmasidan foydalanib, o‘quvchilarning noto‘g‘ri iboralarini muloyim tarzda to‘g‘rilab borishlari lozim. Bu jarayonni muntazam lug‘at ishlari, ijodiy topshiriqlar va kommunikativ mashqlar bilan boyitish o‘quvchilarning adabiy tilni ongli ravishda qo‘llashiga yordam beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning nutqidagi har bir o‘zgarishni nazorat qilish uchun “Toza nutq daftari”ni joriy qilishi ham maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, ota-onalar ham ushbu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi zarur. Chunki o‘quvchi maktabdan tashqarida eng ko‘p muloqot qiladigan shaxs ota-onadir. Uy sharoitida adabiy tilda muloqot qilish, sleng ko‘p ishlatiladigan ijtimoiy tarmoqlar va videokontentlarni nazorat

qilish, bolalarda kitob o'qish madaniyatini shakllantirish maktabdagi ishning mantiqiy davomiga aylanadi. Ota-onalardan o'rnak bo'lish, muloyim va toza nutqda so'zlashish ham katta ahamiyatga ega. Uchinchidan, o'quvchilarning o'zlari ham jarayonning faol sub'ektiga aylanishi kerak. Ular slengni kamaytirishga qaratilgan "Adabiy til kuni", "Slengsiz hafta" kabi tadbirlar orqali to'g'ri so'zlashishga motivatsiya olishi, kunlik yangi so'zlar bilan ishlashi va adabiy nutqni mustahkamlovchi o'yinlarda qatnashishi zarur. Bu usullar ularning so'z boyligini oshiradi va adabiy tilga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. To'rtinchidan, ta'lim muassasalari slenglarning oldini olishga qaratilgan umumiy madaniy muhitni shakllantirishi zarur. Buning uchun adabiy tilni targ'ib qiluvchi tanlovlar, viktorinalar, prezentatsiyalar tashkil etish, slengning salbiy ta'sirini aks ettiruvchi stendlar yaratish va o'qituvchilar uchun maxsus seminarlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasasi tomonidan yaratilgan bunday tizimli yondashuv o'quvchilarda adabiy tilni qadrlash va to'g'ri muloqot qilish madaniyatini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'ZBEK TILIDAGI SLENGLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME 3 / ISSUE 3 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ Pardaeva Baxtigul Abduraubovna Toshkent viloyati Bekobod shahar 1-umumiy o'rta talim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.
2. Elova Dilrabo, Safarova Go'zal Sotsiologiya // o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent – 2021, 18-19-bet.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Slang>

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934